# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
# FARMONI

## maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan tashkiliy o‘zgarishlar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim agentligining tashkiliy tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining tashkiliy tuzilmasi 5-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 6-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlarning xususiy sektorga o‘tkaziladigan funksiyalari ro‘yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limni yangi bosqichga olib chiqish, uning sifatini oshirish hamda ta’lim dasturlarini takomillashtirish maqsadida shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1 — 4-sinflarida o‘quvchilarga boshlang‘ich, 5 — 9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualar joriy etiladi;

umumiy o‘rta ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik majmualarning fanlararo va sinflararo integratsiyasi ta’minlanadi;

bilimni baholashning yangi tartibi joriy etiladi va uning doirasida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni amaliyotda qo‘llay bilish, tanqidiy fikrlash va berilgan materialni tahlil qila olish kabi ko‘nikmalari baholanadi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinflarida informatika fani, o‘rta sinflarda esa o‘quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan darslar joriy etiladi;

barcha fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushi 60 foizga yetkaziladi. Bunda, darslardagi mavzular aniq muammoni hal qilish orqali o‘rgatiladi, amaliyot darslari esa loyihani bajarish shaklida o‘tkaziladi.

3. Belgilansinki, maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash maqsadida:

a) 2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik kasblariga birinchi marta ishga qabul qilinayotgan talabgorlarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi. Bunda:

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma’lumotli talabgorlar stajor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadi va ular ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo‘lishi talab etiladi;

stajor-o‘qituvchilarga ular kasbiy sertifikat olguniga qadar oliy ma’lumotli (toifasiz) o‘qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo‘llaniladi;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilinadi. Bunda:

malaka toifasini olish bo‘yicha sinovlar bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda o‘tkaziladi hamda birinchi bosqichda talabgorning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi, ikkinchi bosqichda — pedagogik mahorati baholanadi;

malaka toifasi berishning yangi tartibi joriy qilinguniga qadar malaka toifasini olish boʻyicha sinovlarni oʻtkazishga moratoriy joriy etiladi;

moratoriy davomida pedagog kadrlar navbatdagi malaka toifasini olish sinovlariga jalb etilmaydi hamda ularning malaka toifasini tasdiqlovchi sertifikatning amal qilish muddati navbatdagi sinovlarga jalb qilinguniga qadar avtomatik ravishda uzaytiriladi;

v) 2025-yil 1-yanvarga qadar malaka toifalarini berish tizimini vakolatli xorijiy tashkilotlarning akkreditatsiyasidan oʻtkazish orqali pedagog kadrlarga xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini berish amaliyoti yoʻlga qoʻyiladi.

Bunda, xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini olgan pedagog kadrlarga tarif stavkalarining amaldagi miqdorlariga nisbatan 70 foiz miqdorida qoʻshimcha haq toʻlanadi;

g) pedagog kadrlarning “elektron portfoliosi” shakllantirib boriladi va unga oʻqituvchilarning malaka darajasi, kasbiy rivojlanish natijalari va pedagogik faoliyati davomida erishgan yutuqlari kiritiladi;

d) ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun “tayanch maktab” etib belgilanadi.

Bunda, umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻqituvchilari “tayanch maktablar” tomonidan yangi taʼlim dasturlari, dars oʻtishning ilgʻor metodikalari va oʻquvchi bilimini baholashning zamonaviy usullariga oʻrgatiladi;

e) 2024-yil 1-iyundan boshlab davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarining oliy maʼlumotli pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining tegishli pedagog xodimlari bazaviy tarif stavkalarining amaldagi miqdorlariga tenglashtiriladi.

4. Shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2023-yil 1-sentabrdan boshlab:

umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlariga oʻz oʻrinbosarlarini ishga qabul qilish va ishdan boʻshatish, ajratilgan umumiy soatlar doirasida oʻquv rejalariga 15 foizgacha oʻzgartirish kiritish masalalarini mustaqil hal qilish huquqi beriladi;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlarining umumiy oʻrta taʼlim muassasalari faoliyatini tekshirish va taʼlim sifatini baholash boʻyicha vakolatlari bekor qilinadi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida eng tajribali umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlaridan iborat boʻlgan Direktorlar kengashlari tuziladi;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlarini lavozimiga tayinlash Direktorlar kengashi tavsiyasiga asosan Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalari (keyingi oʻrinlarda — hududiy boshqarmalar) tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlarini har besh yilda bir marotaba kasbiy sertifikatsiyalash tizimi joriy etiladi. Bunda, sertifikatsiyadan oʻta olmagan direktorlar belgilangan tartibda lavozimidan ozod etiladi.

5. Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi (X. Umarova) 2023-yil 1-dekabrga qadar hududiy boshqarmalarning boshliqlariga shartnomaviy-huquqiy asosda maslahatchi sifatida xorijiy mutaxassislarni jalb qilsin.

Belgilansinki:

hududiy boshqarmalar boshliqlarining xorijiy maslahatchilariga Prezident maktablarining xorijiy mutaxassislariga nisbatan joriy etilgan mehnatga haq toʻlash shartlari qoʻllaniladi va bu bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlar Taʼlim sohasidagi islohotlarga koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladi;

Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimi hamda maktabgacha, umumiy oʻrta va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlarida faoliyat koʻrsatish uchun jalb qilingan xorijiy mutaxassislar Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy ishchi kuchini jalb etish va undan foydalanish uchun amalga oshiriladigan toʻlovlardan ozod etiladi.

6. Quyidagilar bekor qilinsin:

umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosarlari lavozimiga kadrlarni tayinlashda tuman (shahar) maʼnaviyat va maʼrifat markazi tomonidan tavsiya berish amaliyoti;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilarini ishga qabul qilishda sport sohasidagi vakolatli davlat organining hududiy boʻlimlari hamda sport maktablari metodistlari tomonidan yoʻllanma berish tartibi.

7. Belgilansinki:

a) nodavlat taʼlim tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish, sohada litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridagi byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish maqsadida 2023-yil 1-oktabrdan boshlab:

nodavlat maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda oʻqituvchilarning toifalari hamda bitta sinfda taʼlim oluvchilarning maksimal soniga qoʻyilgan talablar yengillashtiriladi;

nodavlat maktabgacha, umumiy oʻrta va maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlariga sport zalni ularga ijara va tekin foydalanish huquqi asosida tegishli boʻlgan hamda belgilangan talablarga javob beradigan binolarda ham tashkil etishga ruxsat etiladi;

Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi hamda uning hududiy boʻlinmalari tomonidan nodavlat taʼlim tashkilotlari faoliyatini tekshirish vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi;

b) sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan tizim tashkilotlarida ish jarayonini raqamlashtirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

bola tugʻilganidan soʻng, doimiy yashash manzilidagi mikrohududga biriktirilgan umumiy oʻrta taʼlim muassasasida onlayn hisobga qoʻyiladi;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining har oʻquv yili uchun qabul rejasi “my.maktab.uz” elektron platformasida shakllantiriladi.

8. Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi (X. Umarova) oʻquvchilarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish maqsadida 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab:

“Sirdaryo tajribasi” asosida har bitta hududda bittadan zamonaviy “Barkamol avlod” bolalar maktablarini tashkil qilsin, ularda kasb-hunarga va xorijiy tillarga oʻrgatish toʻgaraklarini, shuningdek, kutubxona faoliyatini yoʻlga qoʻysin;

“Barkamol avlod” bolalar maktablarida xususiy sektorni jalb qilgan holda zamonaviy toʻgaraklarni tashkil qilsin;

“Barkamol avlod” bolalar maktablari aʼzolarining xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro imtihonlarga tayyorlovchi toʻgaraklar faoliyatini yoʻlga qoʻysin.

9. Budjet mablagʻlaridan maqsadli va oqilona foydalanish, davlat xaridlari shaffofligini oshirish maqsadida:

2023-yil 1-iyuldan boshlab umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining budjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlarini shakllantirish va ulardan foydalanish boʻyicha belgilangan tartib davlat maktabgacha va ixtisoslashtirilgan taʼlim tashkilotlari uchun ham tatbiq etilsin;

2024-yil 1-yanvardan boshlab markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati xodimlarining bazaviy tarif stavka miqdorlari 1,5 baravarga oshirilsin.

10. Quyidagilar:

faoliyati tugatilgan Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish agentligining budjetdan tashqari jamgʻarmasidagi mavjud mablagʻlarning 100 foizi — Taʼlim sohasidagi islohotlarga koʻmaklashish jamgʻarmasiga, mol-mulklari — operativ boshqaruv huquqi asosida Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga;

faoliyati tugatilgan Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining bino va inshootlari tegishli mol-mulki bilan birga — operativ boshqaruv huquqi asosida Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga oʻtkazilsin.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmoniga muvofiq faoliyati tugatilgan Vazirlar Mahkamasining Bolalarni himoya qilish masalalari shoʻbasining vazifalari va funksiyalari Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligiga oʻtkazilsin.

Belgilansinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyatlari hamda tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish sho‘balari faoliyati Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 8-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 9-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

14. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib maktabgacha va maktab ta’limi vaziri X.U. Umarova, maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari — Maktabgacha ta’lim agentligi direktori A.V. Shin hamda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori A.T. Ubbiyev belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi O.Q. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2023-yil 26-may,
PF-79-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
1-ILOVA

## Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari

Quyidagilar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘quv va tarbiya jarayonlarining o‘zaro mustahkam aloqasi va uzluksizligini ta’minlash;

b) o‘quv va tarbiya jarayoniga xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja, dastur va o‘quv-metodik majmualar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish;

v) o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g‘oyalarini yanada chuqur singdirish hamda yot g‘oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish;

g) iqtidorli yoshlarni aniqlash, saralab olish va ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o‘quvchilarning umumta’lim fanlari bo‘yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta’minlash;

d) pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish va baholash, maqomi hamda obro‘sini mustahkamlash, ularning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilishi, shuningdek, ijtimoiy muhofaza qilinishini tashkil etish;

e) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlari sektorini yanada qo‘llab-quvvatlash, uning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

j) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish va mazkur sohalardagi davlat xizmatlarini kengaytirish;

z) maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim (shu jumladan, chet tillarini o‘rgatish) sohasida litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, mazkur yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan ta’lim tashkilotlar tomonidan sifatli ta’lim berilishini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
2-ILOVA

## Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan tashkiliy o‘zgarishlar

DASTURI

| T/r | Tashkilotning amaldagi to‘liq (rasmiy) nomi | Amalga oshirilayotgan tashkiliy o‘zgarishlar | Amalga oshirilayotgan tashkiliy o‘zgarishlarga oid qoidalar va izohlar |
|---|---|---|---|
| 1. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahri xalq ta’limi bosh boshqarmasi. | Negizida **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari** tashkil qilinmoqda. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining hududiy bo‘linmalaridagi metodistlarga Xalq ta’limi vazirligining hududiy bo‘linmalaridagi metodistlar uchun amalda bo‘lgan bazaviy tarif stavkalari qo‘llanadi. |
| 2. | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta’lim boshqarmalari, Toshkent shahri maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi. | | |
| 3. | Prezident ta’lim muassasalari agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi hududiy bo‘limlari. | | |
| 4. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi **faoliyati tugatilmoqda.** | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab maktab darsliklarining **ijara to‘lovi to‘liq Davlat budjeti mablag‘lari** hisobidan qoplash hamda o‘quvchilarga darsliklarni bepul foydalanishga berish tizimi joriy qilinganligi munosabati bilan budjetdan tashqari **Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi** faoliyati tugatiladi.<br>Bunda, Respublika maqsadli kitob jamg‘armasining barcha funksiyalari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga o‘tkazilib, Davlat budjeti hisobidan ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar alohida shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida yuritish orqali mustaqil tasarruf etiladi. |

<table>
<tr><td>5.</td><td>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Xalq ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi.</td><td>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi etib qayta nomlanmoqda.</td><td rowspan="2">Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari ularning nizomi tasdiqlanguniga qadar o‘z faoliyatini amaldagi tartibga muvofiq amalga oshiradi.<br>Zarur hollarda maktabgacha va maktab ta’limi tizimini rivojlantirish hamda tizim xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasiga Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasidan zarur mablag‘larni jalb qilishga ruxsat etiladi.</td></tr>
<tr><td>6.</td><td>Tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari huzuridagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Xalq ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari.</td><td>Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzuridagi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari etib qayta nomlanmoqda.</td></tr>
</table>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
3-ILOVA

## Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tashkiliy tuzilmasi

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi**

- Respublika ta’lim markazi
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va uning huzuridagi akademik litsey, Respublika pedagogik ta’lim resurs markazi (kutubxona), Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi, Namangan va Xo‘jayli xizmat ko‘rsatish va servis texnikumlari, Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali

- A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti
- Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari
- O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi
- “Barkamol avlod” respublika bolalar maktabi
- Respublika bolalar kutubxonasi
- Respublika o‘quvchi yoshlar markazi

- “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali tahririyati” davlat korxonasi, “Til va adabiyot ta’limi”, “Prepodavaniye yazika i literaturi”, “Language and literature teaching” jurnallari tahririyati” davlat korxonasi, “Ma’rifat” va “Uchitel Uzbekistana” gazetalari tahririyati, “Xalq ta’limi” jurnali tahririyati” davlat korxonasi, “Tong yulduzi” gazetasi tahririyati, “Klass” gazetasi tahririyati, “G‘uncha” jurnali tahririyati, “Gulxan” jurnali tahririyati
- O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati

- “Ta’minot va logistika xizmati” DUK
- “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” DUK
- “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi” MChJ, “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” MChJ
- A.P. Xlebushkina nomidagi 22-son “Mehribonlik” uyi, “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi, “Mehribonlik” uylari respublika sog‘lomlashtirish oromgohi
- Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi, Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi
- Xalq ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi




O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
4-ILOVA

## Maktabgacha ta’lim agentligining tashkiliy tuzilmasi






O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
5-ILOVA

## Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining tashkiliy tuzilmasi






O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
6-ILOVA

## Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha

## YO‘L XARITASI

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmlari | Muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Maktabgacha va maktab ta’limi sohasini takomillashtirish** | | | | | |
| 1. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni olib borish huquqini beradigan kasbiy sertifikatlash tizimini joriy etish. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash sinovlaridan o‘tkazish tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda:<br>2023/2024 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik kasbiga birinchi marta ishga qabul qilingan talabgorlarning bir yil muddat davomida stajor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritishini;<br>stajor-o‘qituvchiga oliy ma’lumotli o‘qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo‘llanishini;<br>stajor-o‘qituvchilarni kasbiy sertifikatlash | 2023-yil 1-noyabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi *(B. Musayev)*, Adliya vazirligi *(A. Tashkulov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | sinovlaridan o‘tkazish tartibini;<br>2024/2025 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshqa pedagog kadrlarini ham kasbiy sertifikatlash sinovlaridan o‘tkazishni nazarda tutish. | | | |
| 2. | Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. | 1. “Zamonaviy maktab”larga qo‘yiladigan talablarni xalqaro baholash mezonlari asosida takomillashtirish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezonlarini ishlab chiqish. | 2023-yil 1-sentabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>*(X. Umarova)* |
| | | 2. Nodavlat va davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyalash tartibini “Zamonaviy maktab” hamda “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” baholash mezonlariga moslashtirish. | 2023-yil 1-oktabr | | |
| | | 3. Hisobot yilida baholanadigan nodavlat va davlat maktabgacha hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini shakllantirish. | 2023-yil 1-noyabr | | |
| | | 4. Baholangan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha “yo‘l xarita”larini ishlab chiqish. | har o‘quv yili yakunida | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 5. I-II darajali “Zamonaviy maktab” va “Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti” maqomini olgan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari rahbarlarini mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan bir martalik rag‘batlantirishni tashkil etish. | har yil yakunida | | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| 3. | Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari ishtirokida pedagogik ta’lim tadqiqot maydonchasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish. | 1. Universitetga Toshkent shahrida joylashgan kamida 5 tadan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini biriktirish. | 2024-yil 1-sentabr | Toshkent davlat pedagogika universitetining budjetdan tashqari mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |
| | | 2. Biriktirilgan ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash imkoniyatini beradigan tajriba-sinov maydonini yaratish. | 2024-yil davomida | | |
| 4. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibini takomillashtirish. | Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash.<br>Bunda nizomda:<br>maktabgacha va maktab ta’limi vaziriga Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan mahalliy va xorijiy mutaxassislarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida jalb etish huquqini berish;<br>zarur hollarda, maktabgacha va maktab | 2023-yil 1-sentabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ta’limi tizimini rivojlantirish hamda tizim xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda Maktabgacha ta’limni rivojlantirish jamg‘armasidan Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasiga mablag‘lar jalb qilish nazarda tutiladi. | | | |
| **II. Ta’lim dasturlari mazmunini va pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| 5. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xalqaro talablar asosidagi xorijiy darsliklarni joriy qilish. | 1. NACNETTE LIVRE GROUP guruhining “Passe-Passe”, “Décibel” va “L'atelier” darsliklarini xarid qilish va amaliyotga joriy qilish.<br>2. Kembridj nashriyotining “ICT Starters”, “IGCSE ICT” va “International AS and A Level IT” darsliklarini chop etish. | 2024-yil 1-yanvar | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |
| 6. | Maktabgacha va boshlang‘ich maktab ta’limi uzviyligini ta’minlash maqsadida “6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi” maxsus elektron platformasini joriy qilish. | 1. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi” maxsus elektron platformasini joriy qilish. | 2023-yil 1-dekabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Raqamli texnologiyalar vazirligi *(Sh. Shermatov)* |
| | | 2. Platformani umumiy o‘rta ta’limning “my.maktab.uz” elektron platformasi bilan integratsiya qilish. | 2024-yil 1-mart | | |
| 7. | Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan milliy elektron resurslar va multimedia mahsulotlarini yaratish. | 1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’limiy va tarbiyaviy mazmundagi milliy elektron resurslar va multimedia mahsulotlarini yaratish.<br>2. Yaratilgan elektron resurslar va multimedia | 2024-yil 1-dekabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar, Maktabgacha ta’limni rivojlantirish | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mahsulotlaridan pedagog kadrlar, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari tomonidan erkin foydalanish imkoniyatini ta’minlash. | | jamg‘armasi mablag‘lari | |
| 8. | Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari rahbar, uslubchi va pedagog kadrlarining malaka talablarini takomillashtirish. | 1. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari rahbar, uslubchi va pedagog kadrlarining malaka talablarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish. | 2023-yil 1-sentabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi *(I. Abduraxmonov)* |
| | | 2. Yangi malaka talablari asosida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimi uchun zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish. | 2024-yil 1-yanvardan boshlab | | |
| 9. | Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berish tartibini takomillashtirish. | Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berish tartibini takomillashtirish yuzasidan Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda, loyihada malaka toifasini olish bo‘yicha sinovlarni bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda o‘tkazish va birinchi bosqichda — talabgorning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasini, ikkinchi bosqichda — pedagogik mahoratini baholashni nazarda tutish. | 2023-yil 1-dekabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi *(B. Musayev)* |
| 10. | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim | 1. Direktorlik lavozimiga nomzodlar zaxirasini shakllantirish, ularni o‘qitish, bilim va ko‘nikmasini baholash | 2024-yil 1-yanvar | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | muassasalari direktorlarini lavozimga tayinlashning yangi tizimini joriy etish. | va sertifikatlashni amalga oshiruvchi “Direktorlar maktabi”ni tashkil etish.<br>Bunda, ushbu tizim doirasida:<br>nomzodlar va maktablarning rahbar kadrlari zamonaviy dasturlar asosida o‘qitilishini va ularga menejerlik sertifikatlari berilishini;<br>menejerlik sertifikatiga ega nomzodlardan maktab direktorlari zaxirasi shakllantirilishini;<br>maktab direktorlarining vakant lavozimlariga nomzodlarni faqat sertifikati mavjud va zaxiraga kiritilgan kadrlar orasidan tanlab olinishini nazarda tutish. | | | |
| | | 2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida eng tajribali umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlaridan iborat bo‘lgan Direktorlar kengashini tuzish.<br>Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi direktori lavozimiga nomzodlarni tayinlashni Direktorlar kengashi tavsiyasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshirishni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish. | 2023-yil 1-sentabr | | |
| | | 3. Davlat maktabgacha ta’lim | 2023-yil 1-sentabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tashkiloti direktori lavozimiga nomzodlarni tayinlashni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshirishni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish. | | | |
| 11. | �aktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hududiy bo‘linmalarining boshliqlari uchun malakali maslahatchi va konsultantlarni jalb qilish. | 1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga maslahatchi sifatida Prezident maktablari direktorlarini, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari boshliqlariga esa, ixtisoslashtirilgan maktablar direktorlarini biriktirish. | 2023-yil 1-iyul | Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |
| | | 2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining boshliqlariga shartnomaviy-huquqiy asosda maslahatchi sifatida xorijiy mutaxassislarni jalb qilish. | 2023-yil 1-dekabr | | |
| 12. | Faoliyati tugatilgan Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xorijiy tillarni | 1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga faoliyati tugatilgan:<br>Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat | 2023-yil 1-iyul | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova),* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o‘rganishini ommalashtirish agentligining bino va inshootlari, boshqa mol-mulklarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga o‘tkazish. | inspeksiyasining bino va inshootlarini operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berish, shuningdek, uning asosiy vositalari va boshqa mol-mulklarini belgilangan tartibda topshirish;<br>Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligining mol-mulklarini belgilangan tartibda topshirish. | | | Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi<br>*(I. Abduraxmonov)* |
| | | 2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Nurxon ko‘chasi, 21-uy manzilida joylashgan binosiga Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasini tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish. | 2023-yil 1-iyul | | |
| | | 3. Quyidagilarni:<br>Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligining budjetdan tashqari jamg‘armasidagi mavjud mablag‘larning 100 foizini Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasiga;<br>Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining budjetdan tashqari Rivojlantirish jamg‘armasiga maktabgacha va maktab ta’limi xizmatlarini ko‘rsatishdan tushgan mablag‘larni Respublika oliy ta’lim kengashiga o‘tkazish. | 2023-yil 1-iyul | | |
| **III. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 13. | Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi axborot tizimlaridagi ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash. | Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Qurilish va kommunal xo'jaligi vazirligining tegishli axborot tizimlarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Yagona elektron dastur (erp.maktab.uz) va "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi (bbit.uz) bilan o'zaro integratsiya qilish.<br>Bunda:<br>umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun "my.maktab.uz" elektron platformasida joriy yilda ushbu muassasaning mikrohududidan 1-sinfga qabul qilinadigan bolalar soni to'g'risida ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratish;<br>umumiy o'rta ta'lim muassasalarining har o'quv yili uchun qabul rejasini "my.maktab.uz" elektron platformasida shakllantirish;<br>bola tug'ilganidan so'ng, uni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "my.maktab.uz" elektron platformasi orqali yashash manzili bo'yicha mikrohududga biriktirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasasida ro'yxatga olish;<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "my.maktab.uz" elektron platformasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida hamda 6 yoshli | 2024-yil 1-yanvar | - | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi *(X. Umarova)*, Adliya vazirligi *(A. Tashkulov)*, Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, Raqamli texnologiyalar vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi *(B. Musayev)*, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi *(B. Zakirov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | bolalarning bir yillik majburiy tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish. | | | |
| 14. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish. | “Raqamli Toshkent” elektron platformasi tajribasidan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga biriktirilgan mikrohudud manzillarini raqamlashtirish choralarini ko‘rish.<br>Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga mikrohududdagi har bir mahalla, ko‘cha, uy va xonadonni biriktirishda ta’lim muassasasining quvvati (o‘quvchi o‘rni) va navbatlilik koeffitsiyentini inobatga olish. | 2024-yil 1-iyun | - | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Kadastr agentligi *(F. Pulatov)* |
| 15. | Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlaridan turli ko‘rinishdagi jadvallar va hisobotlar talab etilishiga bosqichma-bosqich chek qo‘yish. | 1. Yagona elektron dasturda (erp.maktab.uz) umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining asosiy statistik ko‘rsatkichlariga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirish.<br>2. Ma’lumotlarning haqqoniyligi, ochiqligi va shaffofligini ta’minlash uchun Yagona elektron dastur (erp.maktab.uz)ni tegishli vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish. | 2024-yil 1-yanvardan boshlab | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Raqamli texnologiyalar vazirligi *(Sh. Shermatov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 16. | Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini moliyalashtirishni boshqarishda ilg‘or raqamli texnologiyalardan keng va samarali foydalanish | Axborot tizimlaridan keng foydalangan holda masofaviy nazorat va xavf-xatar tahlillari asosida Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘larning noqonuniy va maqsadsiz sarflanishi holatlarining | 2023-yil 1-sentabrdan boshlab | - | Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi *(X. Umarova)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | hamda bu borada inson omilini kamaytirish. | profilaktikasini amalga oshirish va moliyaviy xato-kamchiliklarning oldini olish. | | | |
| 17. | Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish. | 1. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga tajriba-sinov tariqasida o‘quvchilarni elektron qabul qilish tartibini joriy etish. | 2024-yil 1-iyun | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi *(B. Musayev)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Inoyatov)* |
| | | 2. 1-sinfga qabul qilish “my.maktab.uz” elektron tizimiga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni qabul qilish modulini kiritish. | 2024-yil 1-iyun | | |
| | | 3. 1-sinfga qabul qilish “my.maktab.uz” elektron tizimini Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining tizimlari bilan integratsiya qilish. | 2024-yil 1-iyul | | |
| | | 4. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarga o‘quvchilarni elektron qabul qilish tartibini 2024/2025 o‘quv yilida bitta hududda tajriba-sinovdan o‘tkazish. | 2024-yil 1-avgust | | |
| | | 5. Tajriba-sinov natijalari asosida elektron tizimni takomillashtirish va to‘liq ishga tushirish. | 2024-yil 1-avgust | | |
| 18. | Nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun | 1. Nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining litsenziya talab va shartlariga o‘zgartirish | 2023-yil 1-oktabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | belgilangan litsenziya talab va shartlarini qayta koʻrib chiqib, soddalashtirish. | kiritishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda qaror loyihasida:<br>nodavlat maktabgacha va umumiy oʻrta ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda oʻqituvchilarning toifalari hamda bitta sinfda ta'lim oluvchilarning maksimal soniga qoʻyilgan talablarni yengillashtirish;<br>nodavlat maktabgacha, umumiy oʻrta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlariga sport zalni ularga ijara va bepul foydalanish huquqi asosida tegishli boʻlgan binolarda ham tashkil etishga ruxsat etish;<br>nodavlat umumiy oʻrta ta'lim tashkilotlarining Oʻzbekiston tarixi va oʻzbek tili fanlariga ajratiladigan oʻquv soatlari hajmini davlat umumiy oʻrta ta'lim muassasalari uchun tasdiqlangan tayanch oʻquv rejaga muvofiq belgilash;<br>nodavlat maktabgacha va umumiy oʻrta ta'lim tashkilotlari zimmasiga oʻquvchilar va tarbiyalanuvchilar toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining Yagona elektron dasturi (erp.maktab.uz), elektron platformalari | | | *(Sh. Kudbiyev)*,<br>Biznes-ombudsman<br>*(D. Kasimov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | (my.maktab.uz, e-shahodatnoma.uz, kundalik.com) va boshqa tegishli axborot tizimlari hamda "Bolalar bog'chasi" (bbit.uz) axborot tizimiga kiritish hamda yangilab borish vazifasini yuklash;<br>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirishni vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshirish nazarda tutiladi. | | | |
| | | 2. "Ta'lim to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga tegishli o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil 1-oktabr | | Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi *(X. Umarova)*, Biznes-ombudsman *(D. Kasimov)*, Sog'liqni saqlash vazirligi *(A. Inoyatov)* |
| **IV. Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish** | | | | | |
| 19. | O'quvchilar ongida Vatanimiz ramzlarini ulug'lash va ardoqlash tuyg'usini tarbiyalash maqsadida "Davlat ramzlari — faxrim, g'ururim" mavzusida tadbirlarni tashkil qilish. | 1. "Davlat ramzlari — faxrim, g'ururim" mavzusidagi tadbirlar turkumini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2023-yil 1-iyun | - | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi *(M. Xodjimatov)*, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi *(X. Umarova)*, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi *(S. Saidov)* |
| | | 2. Davlat ramzlari qabul qilingan kunlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, insholar tanlovlarini tashkil etish. | Reja-grafik asosida | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 20. | Ota-onalarning farzand tarbiyasiga bee’tiborligi, o‘quvchilar o‘rtasida turli huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining salbiy oqibatlari aks ettirilgan videokontentlarni tayyorlash hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilar, ota-onalar o‘rtasida namoyish etish. | 1. O‘quvchilar o‘rtasida g‘ay�iijtimoiy harakatlarning oldini olishga qaratilgan videokontentlarni ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhni shakllantirish. | 2023-yil 1-sentabr | Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Ichki ishlar vazirligi *(P. Bobojonov)*, Milliy gvardiya *(R. Djurayev)* |
| | | 2. Loyiha materiallarini tayyorlash va tasvirga olish. | 2023-yil 1-dekabr | | |
| | | 3. Tayyorlangan videomateriallarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida namoyish etish. | 2024-yil 1-fevraldan boshlab | | |
| 21. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari va sinf rahbarlarining vazifalarini qayta ko‘rib chiqish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining malakali pedagoglari va direktorlaridan iborat ishchi guruhini shakllantirish. | 2023-yil 15-iyun | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |
| | | 2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari va sinf rahbarlarining lavozim yo‘riqnomasini ishlab chiqish. | 2023-yil 1-iyul | | |
| **V. Ta’lim olish uchun qulay shart-sharoit yaratish** | | | | | |
| 22. | Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish. | Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirishga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini ishlab chiqish.<br>Bunda, qaror loyihasida:<br>umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining moddiy-texnik jihozlarini hisobga olish tartibini takomillashtirish va byurokratik tartib- | 2023-yil 1-dekabr | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Strategik islohotlar agentligi *(Sh. Vafayev)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(Sh. Kudbiyev)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | taomillarga barham berish;<br>talablarni qayta ko‘rib chiqish va maqsadli yechimlarni yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining sanitariya-gigiyena muammolari bilan bog‘liq masalalarini kompleks hal qilish;<br>umumiy o‘rta ta’lim tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish;<br>umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini diqqatga sazovor joylarga aylantirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklikning yangi turlarini joriy etish orqali ularning iqtisodiy barqarorligini oshirish;<br>umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilashda davlat organlari va tashkilotlarining faol ishtirokini ta’minlagan holda ularni qo‘shimcha maqsadli moliyalashtirish manbalarini shakllantirish;<br>tashabbusli budjetlashtirish tizimi orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini moliyalashtirish samaradorligi va shaffofligini oshirish;<br>aholini ta’lim muhitini rivojlantirishga jalb qilish, maktablarni rivojlantirishda shaxsiy daxldorlik hissini shakllantirish nazarda tutiladi. | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 23. | Xalqaro tashkilotlar, xorijiy moliya institutlari va hamkorlar bilan ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan istiqbolli loyiha va dasturlarni ishlab chiqish. | 1. Ta’lim muassasalarining mavjud moddiy-texnik ehtiyojini aniqlash. | 2023-yil 1-avgust | - | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi *(L. Kudratov)*, Tashqi ishlar vazirligi *(B. Saidov)* |
| | | 2. Xalqaro hamkorlar ko‘magida amalga oshiriladigan ta’lim sifati va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli dasturlar konsepsiyasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirliklarga taqdim etish. | 2024-yil 1-yanvar | | |
| | | 3. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy moliya institutlari va hamkorlar bilan mazkur yo‘nalishda muzokaralar o‘tkazish hamda moliyaviy manbalarini kelishish. | 2025-yil 1-dekabr | | |
| 24. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda qaror loyihasida:<br>umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida informatika sinf xonalarida zamonaviy kompyuter texnikasiga qo‘yilgan minimal talablarni belgilash;<br>umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini talab darajasida kompyuter sinf xonalari hamda yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash;<br>elektron ta’lim kontentlarini yaratish va axborot tizimlarini joriy etish;<br>axborot texnologiyalari sohasida | 2023-yil 1-avgust | Respublika va mahalliy budjet mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(Sh. Kudbiyev)*, Raqamli texnologiyalar vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kadrlar salohiyatini oshirish nazarda tutiladi. | | | |
| 25. | O‘quvchilarni IT sohasiga doir kasblarga yo‘naltirish va ularning bilimini oshirish ishlarini samarali tashkil etish | 1. “Digital Generation Uzbekistan” nodavlat notijorat tashkiloti bilan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilarni IT sohasiga doir kasblarga yo‘naltirish va ularning bilimini oshirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.<br>2. “Digital Generation Uzbekistan” nodavlat notijorat tashkilotini loyihalarni amalga oshirish uchun Respublika ta’lim markazi binosida tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish.<br>3. Hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish uchun Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasidan zarur mablag‘lar ajratib borish. | 2023-yil 1-iyul | Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |
| 26. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlashni yaxshilash. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar sonidan kelib chiqib, yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha yangi “New Education” tarif rejasini Iqtisodiyot va moliya vazirligida deklaratsiyadan o‘tkazishni ta’minlash.<br>Bunda:<br>2024-yil 1-yanvardan boshlab Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida “New Education” tarif rejasi joriy etilishi;<br>ta’lim muassasalaridagi bolalar sonidan kelib chiqib, | 2023-yil 1-sentabr | Mahalliy budjet mablag‘lari | Raqamli texnologiyalar vazirligi *(Sh. Shermatov)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(Sh. Kudbiyev)*, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | “New Education” tarif rejasi internet tezligi hajmlarini belgilash;<br>ta’lim muassasalarida 400 nafargacha o‘quvchisi bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Internet tezligi kamida 40 Mbit/s, o‘quvchilar soni 400 nafardan ko‘p bo‘lganlarda — kamida 100 Mbit/s bo‘lishini ta’minlash;<br>“New Education” tarif rejasining har bir tezlikdagi paketi uchun har oylik abonent to‘lovi miqdorlarini belgilash va bunda ta’lim tashkilotlari tomonidan internet xizmatlaridan tungi vaqtda foydalanilmasligi inobatga olinadi. | | | |
| 27. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari filiallarini maqbullashtirish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining filiallarini xatlovdan o‘tkazish va xatlov natijalariga ko‘ra:<br>filiallari tugatilib, negizida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari tashkil etiladigan;<br>filiallari tugatilib, o‘quvchi va pedagog kadrlari asosiy yoki yaqin joylashgan boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘tkaziladigan;<br>filiallari saqlanib qoladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining ro‘yxatini shakllantirish. | 2023-yil 1-oktabr | Mahalliy budjet mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi<br>*(X. Umarova)* |
| | | 2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining tugatiladigan filiallari negizida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini tashkil etish. | 2024-yil 1-yanvar | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 28. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi 14 ta sog‘lomlashtirish oromgohining moddiy-texnika bazasini yaxshilash. | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi sog‘lomlashtirish oromgohlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklifni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda:<br>iqtidorli bolalar uchun “Mehribonlik” uylari respublika sog‘lomlashtirish oromgohini qayta tashkil etish hamda moddiy-texnika bazasini yaxshilash;<br>hududlardagi oromgohlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, faoliyatini samarali tashkil etish nazarda tutiladi. | 2023-yil 1-sentabr | Investitsiya dasturi doirasida ajratiladigan mablag‘lar | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(Sh. Kudbiyev)*, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi *(B. Zakirov)*, Sog‘liqni saqlash vazirligi *(A. Inoyatov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |
| 29. | “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini takomillashtirish. | “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini tubdan takomillashtirishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>Bunda:<br>xususiy sektorni jalb qilish orqali “Barkamol avlod” bolalar maktablarida “STEAM-ta’lim” dasturi asosida laboratoriyalar tashkil etish va to‘garak a’zolari sonini oshirish;<br>respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan xalqaro tadbirlarda g‘olib bo‘lgan to‘garak a’zolarini rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi. | 2023-yil 1-dekabr | Respublika va mahalliy budjet mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(X. Umarova)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(Sh. Kudbiyev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazi�lar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari |

Izoh: normativ-huquqiy hujjat loyihalari tartibga solish predmetidan kelib chiqib qayta koʻrib chiqilishi yoki yagona hujjatga birlashtirilishi mumkin. Ikki yoki undan ortiq bandlar birlashtirilganda, ularni ijro etish uchun belgilangan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
7-ILOVA

## Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlarning xususiy sektorga oʻtkaziladigan funksiyalari

RO'YXATI

| T/r | Funksiyalar | Vakolatli organ | Funksiyalarni xususiy sektorga oʻtkazish muddati |
|---|---|---|---|
| 1. | Davlat maktabgacha va umumiy oʻrta ta'lim tashkilotlarini koʻmir yoqilgʻisiga oʻtkazish orqali ularni kuz-qish mavsumida **issiqlik energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu muassasalarning qozonxonalarni modernizatsiya qilish, issiqlik tizimini ta'mirlash va belgilangan me'yorlarda ishlashini ta'minlash** funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida bosqichma-bosqich xususiy sektorga berish. | **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** | 2023-yil avgust |
| 2. | Umumiy oʻrta ta'lim muassasalari oʻqituvchilari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun **ayrim fanlar boʻyicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.** | | 2023-yil sentyabr |

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
8-ILOVA

## Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5368-son Farmonining 5-bandi uchinchi xatboshisidan "davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari," soʻzlari chiqarib tashlansin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-5538-son Farmonida:

a) 2-bandda:

ikkinchi va uchinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"umumiy oʻrta ta'lim davlat ta'lim standartlari va maktabdan tashqari ta'limga qoʻyiladigan davlat ta'lim talablari umumiy oʻrta ta'limni moliyalashtirish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilgan mablagʻlar hisobga olingan holda Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi talablari asosida Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri tomonidan tasdiqlanadi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi rahbarlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi boʻlimlari, shuningdek, Vazirlikka idoraviy mansub boshqa tashkilotlar va muassasalar boshliqlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish mahalliy ijro

etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilmasdan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri tomonidan amalga oshiriladi”;

to‘rtinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

beshinchi — sakkizinchi xatboshilar tegishincha to‘rtinchi — yettinchi xatboshilar deb hisoblansin;

to‘rtinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan (keyingi o‘rinlarda — Davlat inspeksiyasi)” so‘zlari “Vazirlik tomonidan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi “Davlat inspeksiyasining” so‘zlari “Vazirlikning” so‘zi bilan almashtirilsin;

b) 3-banddagi tegishli kelishikdagi “xalq ta’limi muassasalari” so‘zlari tegishli kelishikdagi “maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonida:

a) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. 2021-yil 1-martdan boshlab pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari hamda litsenziyaga ega nodavlat ta’lim tashkilotlariga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarning (keyingi o‘rinlarda — umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlari) malakasini oshirish huquqi berilsin.

Bunda:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlari o‘z ixtiyoriga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarida, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida yoki litsenziyaga ega nodavlat ta’lim tashkilotlarida malakasini oshirishi mumkin;

oliy ta’lim muassasalari va nodavlat ta’lim tashkilotlarining pedagog kadrlar malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlari ushbu maqsadlar uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar hisobidan qoplanadi”;

b) 4-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytidagi maxsus portal” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-sayti” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 6-bandning beshinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 8-banddagi “Moliya vazirligi Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 9-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zi “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 12-banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vaziri, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmasi boshliqlari va Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi boshlig‘i, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi mudirlari” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudirlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

j) 13-bandning “v” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) Ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchilarga yosh avlodni ma’nan barkamol etib tarbiyalash, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, ularni kasb-hunarga o‘rgatishni muvofiqlashtirish, shuningdek, maktab o‘qituvchilari va faol o‘quvchilarining ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishga ko‘maklashish, turli xildagi

viktorinalar, mushoiralar, adabiy kechalar, qiziqarli darslar, kitobxonlik va she’rxonlik musobaqalarini tashkil etish vazifalari yuklanadi”;

z) 15-bandda:

“a” kichik bandning birinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“b” kichik bandning birinchi xatboshisidagi “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

i) 24-banddagi “Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Musayev hamda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri Sh.X. Shermatov” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi vaziri X.U. Umarova” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-106-son Farmonida:

a) nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”;**

b) 1-bandda:

birinchi xatboshidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik), Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“a” kichik bandning uchinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 2-bandda:

oltinchi xatboshidagi “Davlat test markazi” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o‘n ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Agentlik maktablariga rahbar kadrlarni ishga qabul qilish ikki bosqichli (saralash va suhbat), pedagog kadrlarni ishga qabul qilish uch bosqichli (saralash, test sinovi va suhbat) tanlov asosida amalga oshiriladi”;

g) 3-bandning birinchi xatboshisidagi “X. Umarova” so‘zi “A. Ubbiyev” so‘zi bilan almashtirilsin;

d) 5-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (A. Boboyev), Agentlik (X. Umarova), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 8-bandning “e” kichik bandidagi “Davlat test markazining” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

j) 9-bandning birinchi xatboshisidagi “X. Umarova” so‘zi “A. Ubbiyev” so‘zi bilan almashtirilsin;

z) 11-bandning ikkinchi xatboshisidagi “X. Umarova” so‘zi “A. Ubbiyev” so‘zi bilan almashtirilsin;

i) 14-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

k) 19-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri X. Umarova, Agentlik direktori A. Ubbiyev hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi O.K. Abdurahmanov zimmasiga yuklansin”;

l) 1, 2, va 4-ilovalar nomidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

m) 6-ilovada:

nomidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

2-pozitsiyada:

“Moliyalashtirish manbai” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari “Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova), Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbayev)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

3-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova), Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbayev), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (Toshkulov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (Abdurahmonov)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova), Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbayev)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

9-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Xusanov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Musayev)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

15-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Qudratov), Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova)” so‘zlari “Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

16-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Qudratov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

17-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Qudratov), Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova)” so‘zlari “Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

20-pozitsiyadagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi (Umarova)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmonida:

a) nomi va muqaddimadagi tegishli kelishikdagi “xalq ta’limi” so‘zlari tegishli kelishikdagi “maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-banddagi “xalq ta’limini” so‘zlari “maktab ta’limini” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 2-bandning sakkizinchi va to‘qqizinchi xatboshilaridagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 3-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“a” kichik banddagi “2023-2024-yillarda 4-, 5-, 8-, 9- va 11-sinflar uchun” so‘zlari “2025-yilgacha — qolgan sinflar uchun” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 4-bandning birinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 5-bandning birinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligidan” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligidan” so‘zlari bilan almashtirilsin;

j) 7-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligining” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A. Toshkulov), Maktabgacha ta’lim vazirligi (A. Shin) hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenbayev)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I. Abduraxmonov)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“v” kichik bandning uchinchi xatboshisidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

z) 8-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “2023-yil 1-avgustga qadar” so‘zlari “2023-yil 1-oktabrga qadar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

i) 9-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “umumta’lim fanlari” so‘zlari “o‘zi dars beradigan fani” so‘zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi va oltinchi xatboshilaridagi “Davlat test markazining” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o‘n birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov) Moliya vazirligi (T. Ishmetov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

k) 10-bandning birinchi xatboshisidagi “Davlat test markazi” so‘zlari “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

l) 11-bandda:

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

m) 12-bandining birinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

n) 13-banddagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o) 14-banddagi “Moliya vazirligi (T. Ishmetov)” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

p) 1-ilova nomidagi “xalq ta’limini” so‘zlari “maktab ta’limini” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoniga 1-ilovada:

a) 13-bo‘lim “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” pozitsiyasi “Jami boshqaruv shtat birliklari soni” va “Davlat budjeti hisobidan” ustunlaridagi “4 950” raqami “4 898” raqami bilan almashtirilsin;

b) izoh qismining 5.14-kichik bandidan “, Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlar milliy markazi, Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi” so‘zlari chiqarib tashlansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-son qarorida:

a) 5-bandning oltinchi xatboshisidagi “navbatdan tashqari” so‘zlari “qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli ro‘yxat asosida” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovaning 125-bandi birinchi xatboshisidagi “maktabgacha ta’lim tashkilotlariga,” so‘zlari “davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli ro‘yxat asosida,” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-son qarorida:

a) 4-bandning ikkinchi va uchinchi xatboshilaridagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha ta’lim agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 11-bandning uchinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligiga” so‘zlari “Maktabgacha ta’lim agentligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 13-bandda:

“a” kichik banddagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha ta’lim agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

“b” kichik banddagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim boshqarmalari” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 1-ilovada:

2-bandning beshinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi (keyingi o‘rinlarda matnda Vazirlik deb yuritiladi)” so‘zlari “Maktabgacha ta’lim agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik deb yuritiladi)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Davlat sherigi tanlov boshlanishidan 30 kun avval tanlov savdolari o‘tkazilishi haqidagi e’lonni Agentlik rasmiy saytining maxsus bo‘limiga, boshqa ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy organlarining davriy bosma nashrlariga va “Maktabgacha ta’lim metodikasi” jurnaliga, ijtimoiy tarmoqlarga majburiy tartibda joylashtiradi, shuningdek ushbu axborotni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va boshqa manbalar orqali tarqatadi”;

17-banddagi “Vazirlikka” so‘zi “Agentlikka” so‘zi bilan almashtirilsin.

27-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“27. Davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlangandan hamda bitim imzolangandan keyin uch kalendar kuni mobaynida Agentlik rasmiy tartibda uch nusxadan iborat loyiha konsepsiyasi, loyihani baholash hujjatlari va bitimning elektron va qog‘oz ko‘rinishdagi nusxalarini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga DXSh loyihalarining reyestriga kiritish uchun taqdim qiladi”;

34-bandda:

o‘n ikkinchi xatboshidagi “garovga qo‘yish” so‘zlari “boshqa majburiyatlar bo‘yicha garovga qo‘yish” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi o‘n uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Davlat-xususiy sheriklik doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherikka ushbu binoni bank kreditlari bo‘yicha garovga qo‘yishga ruxsat etiladi”;

36-bandning uchinchi xatboshisidagi “Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

93-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarning faoliyati, shu jumladan ko‘p kvartirali uy-joylarning noturar qavatlarida va/yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarda amalga oshirilishi mumkin.”

114-banddagi “Moliya vazirligiga” so‘zi “Iqtisodiyot va moliya vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin”;

118-banddagi “Vazirlik” so‘zi “Agentlik” so‘zi bilan almashtirilsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarorida:

a) nomlanishidagi “Xalq ta’limi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligining” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha hududiy markazlar” so‘zlari “pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

v) 3-bandning “v” kichik bandida:

birinchi xatboshidagi “vazirning Nazorat-huquqiy xizmati” so‘zlari “Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi va uchinchi xatboshilardagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 4-bandning “b” kichik bandida:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi” so‘zlari “Ta’lim” so‘zi bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi “xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha hududiy markazlar” so‘zlari “pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 5-bandning to‘rtinchi xatboshisidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 7-bandda:

yettinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

sakkizinchi — o‘n beshinchi xatboshilar tegishincha yettinchi — o‘n to‘rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

j) 9-bandda:

birinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

ikkinchi — o‘n ikkinchi xatboshilar tegishincha birinchi — o‘n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

birinchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi va to‘qqizinchi xatboshilardagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

z) 10-bandda:

birinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin”;

yettinchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

o‘ninchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

i) 15-banddagi “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” so‘zlari “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

k) 16-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutida umumta’lim muassasalari rahbarlarining maktab ta’limi sohasida menejerlik ko‘nikmalarini shakllantirish kurslari (keyingi o‘rinlarda — kurslar) tashkil etilsin”.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 199-bandidagi “maktabgacha ta’lim tashkilotlari va” so‘zlari “davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli ro‘yxat asosida,” so‘zlari bilan almashtirilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-son qarorida:

a) 3-band quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari hamda o‘quv kurslarini moddiy-texnik jihozlash Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi”;

b) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan:

a) yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan hamda mukammal ta’mirlanadigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini jihozlash (qo‘shimcha jihozlash) yuzasidan xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi etib O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Ta’minot va logistika” davlat unitar korxonasi;

b) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha buyurtmachi etib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli viloyatlar hokimliklari huzuridagi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyalar belgilansin”;

v) 7 va 9-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

g) 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli viloyatlar hokimliklari huzuridagi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyalari maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilgan qurilish-montaj ishlarining sifati yuzasidan yakuniy nazorat amalga oshirilishi uchun mas’ul hisoblanadi”.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi “Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4640-son qarorida:

a) 1-bandda:

birinchi xatboshidagi “Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidan “va Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) 5-bandning uchinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligiga” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziriga umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarining barcha sinflari uchun darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning foydalanish (yangi va qayta nashr etish davriyligi) muddatlarini belgilash, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari barcha sinflari uchun darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qo‘shimcha chop etish yuzasidan qaror qabul qilish huquqi berilsin. Bunda, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning mazmuni asossiz o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi”;

g) 10-banddagi “Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi” so‘zlari “Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda oliy ta’lim muassasalarida noshirlik faoliyati sohasidagi ta’lim yo‘nalishlarini takomillashtirish choralarini ko‘rsin”.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorida:

a) 2-bandning birinchi — uchinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Milliy o‘quv dasturini (keyingi o‘rinlarda — Dastur) joriy qilish bo‘yicha tajriba-sinovni lozim darajada o‘tkazish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markaziga quyidagi vakolatlar berilsin:

Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi talablari asosida umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti, tayanch va variativ o‘quv rejalari hamda dasturlarini ishlab chiqish;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi buyurtmasiga asosan muallif va tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarning yagona maketlarini yaratish”;

b) 5-banddagi “Xalq ta’limi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 7-bandning birinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilaridagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 8-bandning uchinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. 2021-yil 1-yanvardan tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalari tashkil etilsin.

Quyidagilar Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish jamg‘armalarining manbalari etib belgilansin:

2021-yilda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari xodimlari yillik ish haqi fondining 25 foiziga, 2022-yildan boshlab esa — 50 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari tasarrufidagi muassasalarning budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari (homiylik xayriyalaridan tashqari), shu jumladan bo‘sh turgan bino va yerlarini ijaraga berish hisobidan tushgan tushumlardan 3 foiz miqdoridagi ajratmalar;

umumta’lim muassasalarning direktor jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘larning 5 foizi.

Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini rag'batlantirish jamg'armasining mablag'lari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlari, shu jumladan metodistlari hamda umumta'lim muassasalari direktorlarini moddiy qo'llab-quvvatlash tadbirlariga yo'naltiriladi";

e) 14-bandda:

birinchi xatboshidagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi "Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-yanvardagi "Olis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4940-son qarori 5-bandining uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar ro'yxati Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan shakllantiriladi hamda har yili 1-sentabrga qadar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi".

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-apreldagi PQ-5089-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomning 118-bandi birinchi xatboshisidagi "yashayotgan joydagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga," so'zlari "yashayotgan joydagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozli ro'yxat asosida," so'zlari bilan almashtirilsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son qarori bilan tasdiqlangan Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tezlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 21-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi "Zakovat" intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-96-son qarorining 4-bandida:

beshinchi xatboshidagi "professor-o'qituvchilarga" so'zlari "pedagoglarga" so'zi bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshidagi "Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev) Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshkulov), Prezident ta'lim muassasalari agentligi (X. Umarova)" so'zlari "Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A. Ikramov) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I. Abduraxmonov)" so'zlari bilan almashtirilsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-son qarorida:

a) nomidagi "Xalq ta'limini" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limini" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) muqaddimadagi "xalq ta'limini" so'zlari "maktab ta'limini" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 1-bandda:

birinchi va uchinchi xatboshilardagi "Xalq ta'limi vazirligi" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

to'rtinchi xatboshidagi "xalq ta'limi" so'zlari "maktabgacha va maktab ta'limi" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) 2-bandda:

birinchi xatboshidagi "Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xodjimatov)" so'zlari "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Mudofaa vazirligi (B. Kurbanov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (M. Xodjimatov)" so'zlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshidagi “Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi (T. Xudaybergenov)” so‘zlari “Kambag‘allikni qisqartirish va bandilik vazirligi (B. Musayev)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 3-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)”;

e) 4-bandda:

uchinchi xatboshidagi “Moliya vazirligi (T. Ishmetov)” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi xatboshidagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Shermatov) Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov)” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X.Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) bilan birgalikda 2024-yildan boshlab har yili Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlash bo‘yicha moliyalashtirish manbalarini aniqlasin”;

j) 6-bandda:

birinchi xatboshidagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (A. Boboyev), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (A. Voitov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Qurilish vazirligi (B. Zokirov) hamda Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov)” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (B. Zokirov) hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari hamda o‘quv kurslarini moddiy-texnik jihozlash bo‘yicha talablar Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan belgilanadi”;

uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar tegishincha to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

beshinchi xatboshidagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (A. Boboyev), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)” so‘zlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

z) 7-bandning birinchi xatboshisidagi “Xalq ta’limi vazirligi (B. Saidov) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A. Toshkulov)” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Musayev) hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I. Abduraxmonov)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

i) 11-bandda:

birinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi vazirligining” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “xalq ta’limi vazirining” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi vazirining” so‘zlari bilan almashtirilsin;

k) 12-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

*Oldingi tahrirga qarang.*

“2030-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi muassasa va tashkilotlarning (vazirlik markaziy apparati va uning hududiy bo‘linmalaridan tashqari) budjetdan

tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilanadi”;

*(18-band “k” kichik bandining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PF-221-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son)*

l) 13-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi “Xalq ta’limi” so‘zlari “Maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘rtinchi — yettinchi, to‘qqizinchi, o‘n birinchi va o‘n beshinchi xatboshilardagi “xalq ta’limi” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

m) 16-banddagi “xalq ta’limi vaziri B.O. Saidov, moliya vaziri T.A. Ishmetov” so‘zlari “maktabgacha va maktab ta’limi vaziri X. Umarova, iqtisodiyot va moliya vaziri Sh. Kudbiyev” so‘zlari bilan almashtirilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5188-son qarorida:

a) 1-bandning ikkinchi xatboshisidagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi Vasiylik kengashining**

TARKIBI

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. | A.N. Aripov | — | O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, *Vasiylik kengashi raisi* |
| 2. | X.U. Umarova | — | maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, *Vasiylik kengashi raisi o‘rinbosari* |
| 3. | Sh.D. Kudbiyev | — | iqtisodiyot va moliya vaziri |
| 4. | I.Y. Abduraxmanov | — | oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri |
| 5. | J.T. Mirzamahmudov | — | energetika vaziri |
| 6. | Sh.X. Shermatov | — | raqamli texnologiyalar vaziri |
| 7. | Q.S. Sanakulov | — | “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ bosh direktori |
| 8. | A.X. Xursanov | — | “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ boshqaruvi raisi |
| 9. | R.X. Pirmatov | — | “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvi raisi |
| 10. | B.B. Sidiqov | — | “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi |
| 11. | X.N. Xasilov | — | “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi |
| 12. | U.U. Rozukulov | — | “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruvi raisi |
| 13. | M.M. Yunusov | — | “O‘zeltexsanoat” uyushmasi raisi |
| 14. | A.K. Mirsoatov | — | “O‘zmilliybank” AJ boshqaruvi raisi |
| 15. | K.N. Irisbekova | — | “Aloqabank” ATB boshqaruvi raisi |
| 16. | S.S. Annaklichev | — | “O‘zsanoatqurilishbank” ATB boshqaruvi raisi |
| 17. | A.T. Ubbiyev | — | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi direktori, *Vasiylik kengashi kotibi* |

Izoh.

Vasiylik kengashi tarkibiga ko‘ngilli tadbirkorlik subyektlari va homiy tashkilotlar ixtiyoriy ravishda jalb qilinishi mumkin.

Vasiylik kengashi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi”.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi “Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-230-son qarori 1-bandining “v” kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“v) ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda hamda nogironligi bo‘lgan bolalar kasb-hunar maktablarida ishlovchi mutaxassis, ishlab chiqarish, o‘quv yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning bazaviy tarif stavkalariga 50 foiz miqdorda ustamalar to‘lanadi”.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son qarori bilan tasdiqlangan Ommaviy savdolar orqali to‘liqligicha sotiladigan korxonalarning aksiya paketlari (ulushlari) ro‘yxatidan 642 va 643-pozitsiyalar chiqarib tashlansin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishi bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha milliy kengashning joriy faoliyatini ta’minlash uchun tashkil etilgan respublika shtabi tomonidan joylarda amalga oshiriladigan ishlar rejasining 11-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **11.** | Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish. | 1. Jahon banki, YUNISEF, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli tashkilotlar va moliya institutlari bilan hamkorlikda Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini rivojlantirish strategiyasini (National Compact) ishlab chiqish va xalqaro hamkorlar bilan birga tasdiqlash. | 2023-yil iyun | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shahar hokimliklari |
| | | 2. Strategiyani (National Compact) maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga joriy etib borish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni maktabgacha va maktab ta’limi vaziri buyrug‘i bilan belgilash. | 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab har yili sentyabr oyida | |

”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoniga
9-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim hujjatlari

RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonining 11 va 14-bandlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022 — 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoniga 2-ilovaning 4-bandi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorining 5-bandi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarorining 4-bandi “a” kichik bandi, 7, 8, 23-bandlari, 1-2 ilovalari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarorining 2-bandi hamda 1 va 2-ilovalari.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4119-son qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4444-son qarorining 1-bandi, 1 va 2-ilovalar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-son qarorining 7 va 9-bandlari.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4642-son qaroriga 1-ilovaning 11-bandi hamda 2-ilovaning 11-bandi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5188-son qarorining 14-bandi.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son)*